

KONFERENSIYALAR UZ

— ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

IYUL, 2025-YIL



O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, iyul

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-222-0

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 49 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 10-iyul

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda “O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lim istiqbollari” nomli I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lim, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

ISBN 978-9910-09-222-0

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

G`ulomov Ibrohim

MANG`IT NA`MOYONIDAN OLINGAN NIOBIY VA TANTAL SAQLAGAN MA`DANLARNI

BOYITISH.....4-10

TARIX FANLARI

Xolova Umida, Jalolova Zarina

MA`RIFATPARVARLIK RUHI VA AYOL OBRAZINING YUKSALISHI: DILSHODI BARNO

NIGOHIDA 11-14

Sobirov Sardorbek

YETTISHAHAR DAVLATI ASOSCHISI YOQUBBEK BADAFLAT FAOLIYATIGA

BIR NAZAR..... 15-19

FALSAFA FANLARI

Mamadiyarova Malika

OILAVIY QADRIYATLARNING AXLOQIY XUSUSIYATI 20-22

FILOLOGIYA FANLARI

Xudoynazarova O`g`lonoy

TIBBIY DISKURDA DINIY BARQAROR BIRIKMALAR 23-25

Abdukaxarova Gulnoza

O`ZBEK TILIDA IQTISODIY ANGLISIZMLARNING SHAKLLANISHIGA TA`SIR

ETUVCHI OMILLAR 26-28

Mustafayev Ozod

O`ZBEKISTONDA "RAQAMLI (INTERAKTIV) ADABIYOT" MUHITINING SHAKLLANISHI VA

ADABIY ASARLARNING ONLAYN PLATFORMALARDAGI EVOLUTSIYASI 29-32

YURIDIK FANLARI

Allamberganova Farida

ISTE`MOLCHI HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDA ROMAN-GERMAN VA ANGLO-SAKSON

HUQUQIY TIZIMLARIDAGI O`ZIGA XOS XUSUSIYATLAR 33-40

PEDAGOGIKA FANLARI

Rasulov Erkin

KOGNITIV HAMDA METAKOGNITIV FAOLIYATLAR O`RTASIDAGI BOG`LIQLIK VA ULARNI

RIVOJLANTIRISH USULLARI 41-45

PSIXOLOGIYA FANLARI

Smetova Gulzar

TIBBIYOT XODIMI FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK BILIMLARNING AHAMIYATI..... 46-48

O'ZBEK TILIDA IQTISODIY ANGLISIZMLARNING SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Abdukaxarova Gulnoza

Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: gulnoza.abdukaxarova@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiy anglisizmlarning o'zbek tilidagi shakllanish jarayoni va unga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilinadi. Tilshunoslik va iqtisod sohalarining kesishgan nuqtasida o'zaro integratsiyalashuv, global iqtisodiyot va texnologik taraqqiyot natijasida paydo bo'lgan yangi terminlar o'zbek tiliga qanday kirib kelayotgani o'rganiladi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari, internet va xorijiy ta'lim tizimining roli alohida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy anglisizmlar, til o'zgarishi, globalizatsiya, zamonaviy iqtisodiy terminologiya, internet, xorijiy ta'lim.

FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF ECONOMIC ANGLICISMS IN THE UZBEK LANGUAGE

Abdukaxarova Gulnoza

Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotation. This article analyzes the formation of economic Anglicisms in the Uzbek language and the key factors influencing this process. It examines how new terms emerging from the intersection of linguistics and economics are entering Uzbek under the impact of globalization and technological advancement. Special attention is given to the role of mass media, the internet, and foreign education systems in this lexical integration.

Key words: economic Anglicisms, language change, globalization, modern economic terminology, internet, foreign education.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-222-0/uzb-06>

Kirish.

Zamonaviy tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri — ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida til tizimida yuz berayotgan leksik o'zgarishlarni o'rganishdir. Ayniqsa, ingliz tilining global kommunikatsiyadagi ustuvor mavqei iqtisodiy sohadagi termin va tushunchalarning boshqa tillarga, jumladan o'zbek tiliga ham ko'chishiga olib kelmoqda. Iqtisodiy anglisizmlar bu jarayonning eng faol qatlamini tashkil etib, ular o'zbek tilining semantik tuzilmasida yangi qatlam hosil qilmoqda.

O'zbek tilidagi iqtisodiy anglisizmlarning shakllanishi va uning paydo bo'lish bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashdan avval, anglisizm tushunchasiga to'xtalishni lozim deb topdik: **anglisizm** – bu ingliz tilidan boshqa tilga o'zlashgan, fonetik, morfologik va semantik jihatdan yangi til tizimiga moslashtirilgan leksik birlik yoki til unsuri hisoblanadi. Ular, odatda, xalqaro iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar, ommaviy axborot vositalari, internet va xorijiy ta'lim tizimlari orqali tilga kirib keladi. Anglizizmlar til tizimida interferensiya, assimilyatsiya va adaptatsiya kabi lingvistik jarayonlar natijasida shakllanadi va ko'pincha zamonaviy terminologiyaaning ajralmas qismiga aylanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Iqtisodiy sohada esa anglizizmlar ko'proq innovatsion tushunchalar, moliyaviy atamalar va texnologik jarayonlarni ifodalashda qo'llaniladi. Ularning faol ishlatilishi o'zbek tilining leksik dinamikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, yangi qatlam – **iqtisodiy anglisizmlar**


shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Iqtisodiy anglisizmlar – terminlar ko'rinishida jahonda va yurtimizda bir qator ilmiy izlanishlar olib borgan tilshunos olimlar mavjud bo'lib, zero bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan mamlakarning o'sish tamal toshi aynan iqtisodiyot ekanligi va uning rivoji uchun tilshoslarning ham sezilarli xissasi zarurligi barchamizga ma'lumdur. Quyida bir qator salmoqli izlanish olib borgan olimlarni ta'kidlashimiz joizdir: Sh.I. Mustafaqulov [1], A. Anikina [2], Z. Borotov [3], N. Husanov, Z. Mirahmedova [4], Z. Zoyirov [5], D. Yuldasheva [6], N.S. Balke [7], L. Barbaglia, S. Consoli, S.T. Manzan va boshqalardir.

Iqtisodiy anglisizm – iqtisodiyotga xos termin yoki frazaning xalqaro iqtisodiy integratsiya va texnologistik interferensiya ta'sirida o'zbek tiliga o'zlashib, zamonaviy iqtisodiy kategoriyalarni nomlash va kognitiv modellash funksiyasini bajaruvchi leksik birlikdir. XX asrning oxiridan boshlab iqtisodiy leksika lingvistik tadqiqotlar markaziga aylana boshladi. Xususan, iqtisodiy atamalarining o'zlashtirilishi, semantik moslashuvi va funksional faolligi anglisizmlarning til tizimida qanday shakllanishini tushunishda muhim nazariy asos yaratdi. Masalan, O.L. Shaxbazyan iqtisodiy terminlarni terminologik kontinuum sifatida tahlil qilgan bo'lsa, V.V. Kasyanov ingliz va rus tillaridagi moliyaviy atamalarni qiyoslab, o'zlashuvning lingvosemantik mexanizmlarini ochib bergan.

O'zbek tilshunosligida O.S. Ahmedov inglizcha soliq-bojxona atamalarining tarjimai va lingvistik xususiyatlarini tahlil qilib, iqtisodiy anglisizmlarning o'zbek tiliga qanday moslashayotganini ochib bergan. L.M. Mitireva esa iqtisodiy neologizmlarning psixolingvistik qabul qilinishini o'rganib, ularning anglisizmlar shaklida qanday idrok etilishini ko'rsatgan. E.V. Kinchina esa iqtisodiy terminologiyaaning asosiy shakllanish manbai aynan ingliz tili ekanini asoslagan.

Muhokama va natijalar.

Iqtisodiy anglisizmlarning o'zbek tilida shakllanishida bir qator omillar mavjud bo'lib, ta'sir etuvchi omillardan katta qismlarini quyidagilar tashkil etadi:



Iqtisodiy anglisizmlarning o'zbek tilida shakllanish jarayoni lingvistik hodisa sifatida nafaqat o'zlashtirish (zaimstvovaniye), balki til tizimining ichki struktura va tashqi kommunikativ ehtiyojlar orqali dinamik transformatsiyasini ifodalaydi. Yuqorida ko'rsatilgan omillar anglisizmlarning kirib kelishida ekstralingvistik determinatsiyalovchi kuchlar rolini o'ynaydi. Ayniqsa, ularning semantik o'zlashtirilishi (semantic borrowing) faqatgina tarjima asosida emas, balki kognitiv model va diskursga moslashish orqali ro'y bermoqda.

Masalan, *“startup”*, *“fintech”* yoki *“outsourcing”* kabi birliklar bevosita innovatsion-iqtisodiy kontseptlarni ifodalaydi. Ular o'zbek tilidagi mavjud ekvivalentlar bilan to'la almashtirilmaydi, chunki bu anglisizmlar o'zlari bilan birga butun madaniy-kognitiv kontekstni olib kiradi. Shuning uchun ham ularning shakllanishi oddiy leksik kompensatsiya emas, balki diskursiv integratsiya holatidir.

Shuningdek, iqtisodiy anglisizmlar fonetik va morfologik jihatdan o'zbek tiliga moslashish jarayonida **“moslashgan anglisizmlar” (adapted Anglicisms)** qatlamini hosil qiladi. Bunda *“brend”*, *“leazuhz”*, *“kontent”* kabi birliklar mahalliy talaffuz va grammatik shakllar bilan uyg'unlashadi. Bu holat struktural tilshunoslik nuqtayi nazaridan universal til tizimlarining qabul qiluvchanligi va barqarorligining nisbiy xarakterini ko'rsatadi.

Ushbu omillar, alohida va majmuaviy tarzda, o'zbek tilining zamonaviy iqtisodiy leksikasida yangi qatlam – *“raqamli iqtisodiy leksik blok”* ni shakllantirmoqda. Bu esa til tizimini postindustrial paradigma doirasida o'zgaruvchan va moslashuvchan hodisa sifatida talqin qilish zaruratini tug'diradi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy anglisizmlar — bu o'zbek tilida nafaqat tashqi ko'rinishda, balki ichki semantik-harakat mexanizmi bo'yicha ham innovatsion xususiyatga ega bo'lgan birliklardir. Ular lingvistik taraqqiyotning global integratsiyalashgan bosqichida yuzaga kelgan, til siyosati, kommunikativ ehtiyoj va sotsiomadaniy kodlar bilan bevosita bog'liq murakkab til hodisasidir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mustafakulov, SH. I. Iqtisodiy atamalarning izohli lug'ati [Matn] : lug'at / SH.I. Mustafakulov, O.A. Raximberdiyev, M.SH. Egamberdiyeva - Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2019 489 b.
2. Anikina A. Iqtisodiy atamalar lug'ati inglizcha-ruscha. T., 1993.
3. Barotov Z. Iqtisodiy matnlarda neologizmlarning tarjima qilinishi. S., 2013.
4. Husanov N. Mirahmedova Z. Iqtisodiy atamalar va ish yuritish.-T., 2005. B. 106.
5. Zoyirov Z. Iqtisodiyotga oid atamalar va tushunchalar izohli lug'ati. Toshkent, 2004.
6. Yuldasheva, D. The emergence of new economic words and phrases in the lexical system of the modern Uzbek language. 湖南大学学报 (自然科学版), 2022. – pp. 49 (10)
7. Balke N. S. and Petersen D. How well does the Beige Book reflect economic activity? evaluating qualitative information quantitatively. Journal of Money, Credit and Banking, 2002. – pp. 114–136.

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, 10-iyul

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM
ISTIQBOLLARI. III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 49 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 10-iyul

ISBN 978-9910-09-222-0

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.